



KO'RGAZMA YIL 2023 BRENDI

Hurmatli qatnashchilar! «Yil brendi 2023» ko'rgazmasiga xush kelibsiz!

O'zbekiston marketing uyushmasi, ushbu voqea tashkilotchisi sifatida, sizning ekspozitsiyangiz eng samarali tarzda taqdim etilishi uchun bor imkoniyatlarni ishga soladi. Iltimos, ko'rgazmaga tayyorgarlik jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha savollar bilan bizga murojaat qiling.

Sizga Ko'rgazma qatnashchisi yo'riqnomasini taqdim etamiz, unda muhim ma'lumotlar va stendlarni bezash yuzasidan texnik talablar keltirilgan.

Barcha masalalar bo'yicha murojaat qiling: +97 402 28 20

KO'RGAZMA ISH JADVALI

16 may, payshanba	09:00 – 12:00	Maydonlarni belgilash
16 may, payshanba	12:00 – 18:00	Material va jihozlarni keltirish, Stendlar montaji
17 may, juma	09:00 – 17:00	Material va jihozlarni keltirish, Stendlar montaji
17 may, juma	17: 00 -18:00	Stendlarning Tashkilotchi tomonidan qabul qilinishi. Barcha jihozlar va ekspонатlar o'rnatilgan bo'lishi, chiqindilar chiqarib tashlanishi lozim
18 may, shanba	12:00 – 20:00	Ko'rgazma ish vaqti
19 may, yakshanba	12:00 – 20:00	Ko'rgazma ish vaqti
19 may, yakshanba	20:00 dan boshlab	Stendlar demontaji
20 may, dushanba	09:00 – 18:00	Stendlar demontaji, yakuniy tozalash

STENDLARNI BEZATISH VA KO'RGAZMADA QATNASHISHNING UMUMIY QOIDALARI

Ko'rgazma standlarini loyihalash va bezatishga talablar

1. Stend ekspozitsiyasi albatta balandligi 3 m.li **orqa devorgagina** ega bo'lishi lozim. Pol usti to'shamasi (gilam, laminat va sh.k.) – ko'rgazma qatnashchisining istagiga ko'ra. Qo'shni standlarni to'sib qo'ymasligi uchun, yon devorlarga ruxsat berilmaydi. Ijaraga olingan maydon doirasida tumba, stol, minbar va boshqa konstruksiyalar o'rnatish mumkin.

Ruxsat berilgan standlar namunasi:





2. Yo'lka eni 5 m. bo'lgan joylarda stand eni 2 m. bo'lishi lozim. Maydon imkon bergan joylarda stand enini yo'lkadagi bo'shliqlar hisobiga kengaytirish mumkin, faqat mehmonlar o'tish yo'li uchun kamida 3 m. qoldirish kerak.
3. Stand konstruksiyasining hech bir qismi (jumladan yoritkichlar, bayroqlar, dekorativ unsurlar va boshqalar) egallab turilgan ko'rgazma maydonidan, jumladan standning vertikal proyeksiyasi bo'yicha ham, tashqariga chiqib ketmasligi lozim.
4. Konstruksiyaning standlar o'rtasidagi yo'lklar tomonidan va qo'shni standlar tomonidan ko'rinadigan barcha tashqi yuzalari (orqa devorlarning yon yuzalari) tegishli shaklda dekoratsiyalanishi lozim.
5. Stand yoritish tizimi umumiy o'chirgich bilan jihozlanishi shart. Kun oxirida pavilyonni tark etishda eksponent standdagi yoritish tizimi o'chirilganiga ishonch hosil qilishi lozim.
6. Foyeda chekish taqiqlanadi. Chekish uchun joylar ko'cha hududida jihozlangan.
7. Ko'rgazmada ochiq olov, pirotexnika va tutunli effektlar qo'llash, tez alanganadigan moddalardan foydalanish taqiqlanadi.

Stendda shou-dasturlar va taqdimotlar o'tkazish

Stendda lotereyalar, shou-dasturlar, taqdimotlar va stendingizda mehmonlarning ehtimoliy to'planishi bilan bog'liq boshqa tadbirlar o'tkazilishi yuzasidan oldin Tashkilotchi bilan kelishib olinishi lozim.

Tadbir qat'iyon ijaraga olingan ko'rgazma maydoni doirasida o'tishi lozim.

Sizdan ko'rgazmaning boshqa qatnashchilari va ularning mehmonlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishingizni so'raymiz. Shikoyat tushganda Tashkilotchi stendingizdagi shovqin manbasini o'chirib qo'yish huquqiga ega.

Stendda taom tayyorlash va degustatsiya uyushtirish

Stendda taom tayyorlash va degustatsiya uyushtirishga faqat Tashkilotchi bilan kelishilgan va quyidagi talablarga rioya etilganda ruxsat beriladi:

1. Faqat elektr plita, duxovka va sh.k. bo'lgandagina ko'rgazmada taom tayyorlashga ruxsat beriladi.
2. Ochiq olov qo'llanilishi, tutun yoki o'tkir hidlar yuzaga kelishiga yo'l qo'yilmaydi.
3. Qatnashchi Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etishi lozim.
4. Degustatsiyalar sanitar me'yorlarga rioya etilgan holda tashkil etilishi shart. Qatnashchi chiqindilar utilitatsiyasini ta'minlashi, shuningdek stendda va yondosh yo'lkalarda ozodalikni saqlashi lozim.
5. Boshqa qatnashchilar tomonidan shikoyatlar yuzaga kelganda Tashkilotchi taom tayyorlash va degustatsiya jarayonini to'xtatib qo'yishga haqli.

Ko'rgazmada savdo qilish

Ko'rgazmada savdo qilishga ruxsat berilmaydi.

Ko'rgazma muddatlari

Barcha stendlar Tashkilotchi belgilagan muddatlarda, montajning oxirgi kunida tekshirishga tayyor bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan siz montajning oxirgi kuni ertalabdan o'z stendingizda bo'lishingiz va stend to'g'ri va to'liq qurilganiga ishonch hosil qilishingiz lozim, chunki stendingizni o'z vaqtida jihozlab, bezatishga ulgurishingiz kerak.

Ekspонатlarning barcha quti va yashchiklari bo'shatilib, montajning oxirgi kunida stenddan olib ketilgan bo'lishi lozim. Aks holda Tashkilotchi ularni stenddan qatnashchining hisobidan chiqarib tashlash huquqiga ega. Ko'rgazmaning oxirgi kunida faqat ko'rgazma yopilganidan keyin stendga taralarni keltirishga, ekspонатlarni qadoqlash va jo'natishga ruxsat beriladi.

Demontajning oxirgi kuni butun maydondan ekspонатlar, konstruksiyalar va chiqindilar olib ketilgan bo'lishi lozim.